

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta'lim yo'nalishining
malaka talablari*

Toshkent-2023

ЎзР ОУМТБ
Eyrpyx № 367
21 08 2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «21» 08 dagi 367 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.3.	<i>60210500 – Rangtasvir: dastgohli</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi

60210500 – Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60210500 – Rangtasvir:dastgohli ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **60210500 – Rangtasvir: dastgohli** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60210500 – Rangtasvir:dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60210500 – Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi - tasviriy san'at sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, Bolalar musiqa va san'at maktablari, Ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida мутахассисликка oid fanlarni o'qitish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalar, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va qoshidagi badiiy ijodkorlar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, madaniy meros obe'ktlari, Barkamol avlod bolalar maktablari va markazlari, O'zbekiston tasviriy san'at muzeylari, davlat va nodavlat tashkilotlari, xususiy ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- O'zbekiston Badiiy akademiyasi va uning huzuridagi tashkilotlar;
- Bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari;
- xususiy ishlab chiqarish birlashmalari;
- madaniyat markazlari;
- hunarmand uyushmasi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, ixtisoslashtirilgan rassomlik maktablarida ta'lim tarbiya jarayoni,
- Barkamol avlod bolalar maktablari va markazlari

60210500 – *Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, badiiy kompozitsion asarlarni yaratish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalarda ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, O'zbekiston tasviriy san'at muzeylarida kasbiy faoliyat olib borish, O'zbekiston Badiiy akademiyasi qoshidagi Badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish hamda badiiy asarlarini yaratish huquqiga ega bo'ladi.*

1.2.3. 60210500 – *Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari:*

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish;
- ilmiy-ijodiy faoliyati;
- pedagogik faoliyat (akademik litseylar, ixtisoslashtirilgan rassomlik maktablari bolalar musiqa va san'at maktablarida);
- tadbirkorlik.

1.2.4 60210500 – *Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.*

60210500 – *Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:*

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar, kompaniyalar (firmalar)dagi rassom va dizayn sohasiga oid bo'limlarni boshqarish;
- tashkilot va korxonalar brendini shakllantirish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy-ijodiy faoliyatida:

- portret, manzara, natyurmort, maishiy, tarixiy janrlarda asarlar yaratish;
- soha bo'yicha ilmiy-texnik axborotlarni, dastgohli rangtasvir muhiti bo'yicha respublika va xorijda chop etilgan albom, ijodiy (badiiy) asarlarni o'rganish;
- ilmiy (ijodiy)-tadqiqot va loyiha ishlarini bajarish;
- mavzu bo'yicha ijodiy-texnikaviy (topshiriq) ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish, tizimlashtirish;
- ijodiy izlanish natijalari, ishlanmalarni tadbiiq etishda qatnashish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- kasbga oid yoʻnalishlarni, tasviriy sanʼat obʼektlarini oʻrganish va tizimlashtirish;
- internet tarmogʻida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi maʼlumotlarni maqsadga yoʻnalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, mutaxassislikka oid tayorlangan oʻquv adabiyotlarni ekspertizadan oʻtkazishda ishtirok etish;
 - shaxsiy va guruhli ijodiy koʻrgazmalarda ijodiy asarlari bilan ishtirok etish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish qobiliyatiga ega boʻlishi lozim.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim, professional taʼlim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- bolalar musiqa va sanʼat maktablari hamda ixtisoslashtirilgan sanʼat maktablari taʼlim muassasalarida mutaxassislikka oid oʻquv fanlaridan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish;
 - oʻquv jarayonini tashkil etish va oʻtkazilishiga koʻmaklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va tahlil etish;
 - oʻqitilayotgan fanlar boʻyicha dars mashgʻulotlarini oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
- mustaqil taʼlim va ijodiy qidiruv natijasida oʻqitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida oʻz-oʻzini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega boʻlishi lozim.

Loyihaviy- konstruktiv faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chikish va amalga oshirish;
- madaniy va turizm obʼektlarida xususiy faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga ega boʻlishi lozim.

2. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qoʻyiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustakil tahlil qila olish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qoʻllay bilishi, axborotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil kila olish;
- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida tassavvurga ega boʻlishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- taʼlim yoʻnalishi boʻyicha ixtisoslik fanlarni oʻrganish va chuqur egallash uchun zarur boʻlgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy koʻnikma va malakalarini shakllantirishi, kasb faoliyati sohasida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tasviriy san'atning umumiy tarixi, san'at tarixi, taniqli jaxon va O'zbekiston mahobatli rangtasvir san'ati rassomlar ijodini va tasviriy san'atning yo'nalishlarini bilish;
- badiiy akademik maktab qonunlarini, plastik anatomiya, perspektiva va tasviriy san'at tushunchalari va ashyolarini bilish;
- jonli va jonsiz obektlarning (natura) badiiy chizmasini chizish va rangda yozish, mavzuga oid monumental kompozitsiyalar tuzish va turli monumental texnologiyalarida ijrosini amalga oshirish, asarning badiiy yechimini ishlab chiqish, badiiy didga ega bo'lish;
- turli janrlarda tasviriy san'at asarlarini yaratish;
- ijodiy guruh va loyihalarni boshqarish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish;
- loyihalar, biznes-rejalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:
malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: rangtasvir rassomi.

2.3.2. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5880	196
Tanlov fanlar	240	8
Malakaviy amaliyot	630	21
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5880	196	
1.01	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	1
1.03	XT1404	Xorijiy til	120	4	1
1.04	Oz'T1104	San'at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	2
1.05	Oz'T1104	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	Din 1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.07	TSUT1604	Tasviriy san'at umumiy tarixi	120	4	3
1.08	PA1204	Plastik anatomiya	120	4	2
1.09	Rang1770	Rangtasvir	2100	70	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Chiz1766	Chizmatasvir	1980	66	1,2,3,4,5,6,7
1.11	Komp1707	Kompozitsiya	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.12	AshIsh1404	Ashyoda ishlash	120	4	1,2,3,4
1.13	RM1104	Rangtasvirda materialshunoslik	120	4	1
1.14	RTTNK1505	Rangtasvir texnika texnologiyasi va nusxa ko'chirish	150	5	3,4,5,6,7
1.15	JOQACH1308	Jonli odam qomatidan anatomik chizmatasvir	240	8	5,6,7
2.00		Tanlov fanlar	240	8	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	240	8	3,4,5
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	630	21	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002- 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

plastik yechim, issiq sovuq ranglar, birinchi plan, orqa plan, xomaki, simmetriya, assimetriya, dinamika, statika, fazoviy yechim, ritm, shakl, o'lcham, mato, axromatik va xromatik, kolorit, kompozitsion joylashuv, kompozitsion yechim, ranglar yordamida shakl yasash va buzish, fazoviy tasavvur, metodlar (usullar), fazoda chuqurlik, ranglarda fazoning chuqurligini berish, tizim va uning ketma-ketligi, an'anaviy va noan'anaviy usullar, ko'rish xotirasini rivojlantirish, detal, etyud, natyurmort, kompozitsion variant, draperovka, siluet, refleks, faktura.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

**Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti**



Rektor *Mirzoraximov* A.Mirzoraximov

2023 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari
markazi**

Direktor *Sh.Yakubov* Sh.Yakubov

2023 yil « _____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Bosh ilmiy kotibi *F.Abidjanova* F.Abidjanova

2023 yil « _____ » _____

M.O'.

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti**

Rektor v.v.b *E.Shermanov* E.Shermanov

2023 yil « _____ » _____

M.O'.

**P.Benkov nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi**

Direktor *U.B.Xakimov* U.B.Xakimov

2023 yil « _____ » _____

M. O'.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari
va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“___” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Bosh ilmiy kotibi F.Abidjanova, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b. E.Shermonov, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori A.Mirzoraximov birgalikda MRDI da ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv reja mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi


Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi
Bosh ilmiy kotibi



F.Abidjanova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori v.v.b.



E.Shermonov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori



A.Mirzoraximov